

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA KASBIY SOHALARGA OID TERMINLARNING
AMALIYOTDAGI SAMARADORLIGI**

Sitora Xudoyorova Nurulla qizi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida kasbiy sohalarga oid terminlarning amaliyotdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Unda ikki til terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, ularning mutaxassislar o'rtasida axborot almashinuvi, ilmiy-texnik hamkorlik va tarjima jarayonlaridagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, terminlarni standartlashtirish, zamonaviy texnologiyalar yordamida lug'atlar tuzish hamda kasbiy muloqotda qo'llash samaradorligi bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi. Tadqiqot natijalari ikki tilli kasbiy terminologiyani rivojlantirish hamda mutaxassislar malakasini oshirishga xizmat qilishi ko'rsatib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *O'zbek tili, ingliz tili, kasbiy terminologiya, amaliy samaradorlik, standartlashtirish, tarjima jarayoni, ikki tilli lug'at, mutaxassislik muloqoti.*

Termin, tilshunoslikning asosiy birligi sifatida aniqlik, izchillik, ilmiy tushuncha bilan aloqadorlik kabi xususiyatlarga ega. Shu bilan bir qatorda, asosiy leksik va semantik jarayonlar ta'sirida adabiy til so'z boyligining bir qismi ham hisoblanadi.

Misol sifatida kompyuter so'zlarini terminologik va terminologik bo'lmagan guruhga tasniflash mumkin. Aslida, kompyuter so'zlari turli darajadagi "terminologizatsiya"ga ega bo'lishi mumkin. Masalan, ko'pchilik terminologik tushunchalar umumiy til so'zlari sifatida iste'molga chiqmoqda: download (yuklab olish) bir necha yil oldin faqatgina kompyuter mutaxassislariga ma'lum bo'lgan, bugungi kunda esa bu odatiy holga aylangan [1,94]. Download terminining bunday ommalashishi, ehtimol, so'z yaratilgan paytda taxmin qilinmagandir, uning keng jamoatchilik tomonidan ishlatilishi internetning portlashi natijasida yuzaga keldi. Lekin boshqa hollarda, agar so'z yaratilsa, u mutaxassis bo'lmaganlar orasida ham keng foydalanish uchun mo'ljallanganligini sezish qiyin emas. Misol uchun, desktop (ish stoli), folder (papka), recycle bin (chiqindi qutisi), wallpaper (gul qog'oz) kabi foydalanuvchi interfeysi tushunchalari. Terminograflar ham, leksikograflar ham kompyuter so'zlariga turlicha yondashuv asosida tahlil qiladi. Xususan, terminograflar shu soha yo'nalishidagi asosiy terminlarning qo'llanilishi bilan shug'ullansa, leksikograflar esa leksik birliklarning kompyuter ma'nosini izohlashga harakat qiladi. Leksikograflar so'zning ma'nosini va uning kontekstda qanday ishlatilishini tavsiflash bilan shug'ullanadilar. Leksikograflardan farqli o'laroq, terminograflar leksik elementni tahlil qilganda, ular faqat ma'lum bir bilim sohasidagi ushbu elementning ma'nosini nazarda tutadilar. Masalan, virus termini eng kamida ikki xil atamaga to'g'ri keladi, biri tibbiyotda, ikkinchisi hisoblashda [2,39].

Terminografning eng asosiy vazifasi yangi yo'nalishdagi paydo bo'lgan tushunchalarni aniqlash va ularni mos atamalar bilan iloji boricha tezroq

moslashtirishdir. Demak, leksikograflardan farqli o'laroq, terminograflar tavsiflovchi rolga emas, balki tildan qanday holatda foydalanish kerakligini ifodalovchi vazifaga ega: atamalarni standartlashtirish juda muhim, chunki odatda "yuqori sifatli" terminologiya (masalan, sinonimiyaning yo'qligi, shaffof atama shakllanishi) bilimlarni samarali rivojlantirishga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, terminologiya qancha mukammal bo'lsa, mutaxassislar hamda nomutaxassislar o'rtasida tillar bo'yicha bilimlarni uzatish osonroq bo'ladi.

Ba'zi terminlar kompyuter sohasida namoyon bo'lishidan oldin boshqa ixtisosliklarning termini sifatida qo'llanilgan. Masalan, surfing (internetda vaqt o'tkazish) – channel surfing (televizor qarshisida vaqt o'tkazish); bandwidth (hisoblash texnikasida ma'lumotlar uzatish tezligini bildiradi) – telekommunikatsiyada esa u aloqa kanalining spektri; virus, albatta, tibbiyot nuqtayi nazaridan kasallikka sabab bo'luvchi mikroorganizm sifatida [3,76].

Terminograf Ahmad ta'kidlaganidek, "Kompyuter sohasidagi keng tarqalgan so'zlarning ba'zilari O'rta asr ingliz tili (Middle English) dan kelib chiqqan va shuning uchun lotin tiliga asoslangan". Masalan, computer (kompyuter) lotin tilidagi computare so'zidan olingan. Tilshunos yana algorithm (algoritim), data (ma'lumotlar), and program (dastur) kabi so'zlarni ham xuddi shu kabi tasniflaydi. Ko'plab ilmiy sohalarida an'ana tarzda qo'llaniluvchi iyerarxik ketma-ketlikdagi kabi namunalar hisoblash texnikasiga oid atamalar uchun ham o'rinli:

printer (printer) → laser printer (lazerli printer) → colour laser printer (rangli lazerli printer) [4,81].

Pitch va Draskuning fikricha, "Kompyuter terminlarining asosiy qismi barchaga allaqachon ma'lum, chunki ular mavjud umumiy til ma'nolarining qayta ifodalanishi – terminologizatsiya bilan tasniflanadi" [5,258]. Ushbu jarayonga ingliz tilidagi mouse, desktop, mega, mailbox, domain, virtual, windows kabi terminlarni olishimiz mumkin. Masalan, tilimizning zamonaviylashishi natijasida biz o'zbek tiliga sichqoncha, disk, internet etikasi kabi so'zlarni termin sifatida o'zlashtirganmiz [6,174].

Metaforalarni shu yo'nalishda ommalashganligining muhim sabablaridan biri shuki, ularning nazariy jihatdan sodda va tushunarli ekanligidir. Ko'pgina kompyuter metaforalari markaziy mavzular atrofida to'planadi, bu hodisa boshqa sohalar uchun ham qayd etilgan. Asosiy mavzularni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Office (idora): desktop, recycle bin, files, folders

Transportation (tashish, uzatish): information highway, web traffic, on-ramp

Architecture (arxitektura): site (construct build a site), under construction, gateway, window

Printed medium (nashriyot): bookmark, web page, browse the web, e-zine

Animals (hayvonlar): mouse, snailmail, web, spider

Community (jamoat): cyberculture, virtual community, home page.

Ushbu metafora tizimligidan farqli o'laroq, boshqa kompyuter so'zlari bizni kutilmagan etimologiyasi bilan taajubga soladi. Spam (Internet arzimasi-pochta) ayniqsa qiziq holat. Spam Amerika va Buyuk Britaniyada urush paytida, go'sht kelishi qiyin bo'lgan paytda sotiladigan arzon konserva mahsuloti bo'lib, go'sht o'rnini bosuvchi sifatida yaxshi tanilgan. Yaqinda spam termini Monti Python namoyishida ommalashtirildi, uni yosh avlodga qayta tanishtirdi. Shu kabi metaforaning madaniy oqibatlari tarjima muammolariga sabab bo'luvchi ajoyib manba hisoblanadi[7,15]

Avto computerate, cyberpunk, email, cybernaut, netizen, screenager, technoplegia, netiquette, eng so'nggisi e - tailing kabi terminlarni kiritishni taklif etgan. Ba'zi qorishmalar turli soha janrlarining kesishmasidan hosil bo'lgan: intermercial (hisoblash + televizor/radio) va texchnoplegia (hisoblash + tibbiyot). Hisoblash texnikasi sohasida kam holatlarda namoyon bo'ladi: Cyber (kiber) - cyberpunk, cyberspace, e-(email, e-verdict), -ware (software, shareware, vapourware), techno (technobabble, technostress). Kompyuter terminlari nafaqat soha mutaxassislari, balki barchamiz uchun oddiy iste'moldagi so'zlarga aylanishining sababi sifatida Omonov.B "Biz ushbu leksik migratsiya jarayonini "determinologizatsiya" deb ta'riflaymiz" [8,190].

O'zbek va ingliz tillaridagi g'aznachilik terminlarini o'rganish jarayonida shular ma'lum bo'ldiki, o'zbek terminologiyasi nisbatan ko'p komponentligi bilan xarakterlanar ekan [9,74]. Aslini olganda terminologlar terminlar iloji boricha kam, nari borsa 2 yoki 3 komponentli bo'lishini tavsiya etadilar. Aks holda ularni eslab qolish va qo'llashda qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Ingliz va o'zbek tilidagi sport sohasidagi terminlarning amaliy samaradorligini ko'rib chiqamiz. O'zbek sport terminologiyasida ingliz tilidan kelib chiqqan so'zlar juda ko'p, chunki aksariyat inglizcha boks terminlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va uning muqobil variantini topish xuddi, o'zbek kurashi sport turi singari ilojsizdir. Chunki, kurashning ham vatani O'zbekiston bo'lgani uchun undagi «kurash», «chala», «yelibosh» singari terminlar kurash sport turi bilan shug'ullanuvchi boshqa mamlakatlarga keng yoyilganidek, boks terminlari ham o'zgarmasdan asl holidek qo'llaniladi [10,41]. Masalan: "swin" - "uzoq masofadan yuborilgan yon zarb", "uppercut" - "jag` qismiga pastki tomondan yuborilgan zarba". T.Falla va P.A.Devising "Solutions" kitobida sportga doir va boshqa faoliyatga doir bir qancha terminlar ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelmoqda, shular jumlasidan: BMXing, skateboarding, cycling, hockey, badminton, martial arts, football va hokazolar [11,58]. Agar, ingliz tilida "football" termini o'zbek tiliga tarjima qilsak, oyoq to'pi deb tarjima qilinsa, unda biz hamma joyda ham sport turning bir turi sifatida og'zaki nutqda, gapirayotganimizda, misol: "Bolalar, kelinglar "oyoq to'pi"ga boraylik." degan gapda, so'zma-so'z ingliz tili terminini ishlatib bo'lmaydi, o'z ma'nosini yo'qotgan bo'ladi, shuning uchun ham sport terminining o'zi o'zgarmagan holatda qollaniladi.

Bundan tashqari, -ist, -ing, -er, -ation suffikslari orqali sport terminlari hosil bo'ladi. Masalan: - er: announcer, boxer; - ation: qualification; -ing: cycling, skateboarding.

Sport terminologiyasida semantik so'z qurilishi o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, bunga so'z birikmalarining quyidagicha yasalishi bilan misol keltirishimiz mumkin. Ikki so'zdan iborat so'z birikmali terminlar:

Martial arts – harbiy o'yinlar, sport jang san'ati

Ice skating- muzlikda konki

Horse riding - otda yurish kabi so'zlardan iborat so'z birikmalari, ingliz va o'zbek tillarini sport jang san'ati terminologiyasidan kundalik hayotga kirib boruvchi iboralar bilan boyitmoqda. Aholi yashash tarzidan kelib chiqib terminlarning ma'nosi har bir tilda so'z boyligiga qarab farqlanadi [12,33].

Masalan, ingliz tilidagi: “-less” (masalan: bondless, waterless), “-like”, “-mis”, “-over”, “-y”, “-ness”, “-under”, “-hood”, “-ful”, “-un” kabi affiks va prefikslar ma'nosining taqqoslanishi mumkin. Shu bilan birgalikda, ot so'z turkumiga oid so'z yasashning o'ziga xos usullari ham mavjud: abbreviatura, o'zaklarni qisqartirish, nolinni suffiksatsiya va substantivatsiya (otlashtirish). So'z yasashning R+s (o'zak +suffiks) turi qiyoslanayotgan tillar tizimlarida keng tarqalgan:

1) R+ment (tion) = R + -ish: alignment, propagation – ko'payish; takror ishlab chiqarish;

2) R+tion = R+ -yatsiya: assimilation – assimilyatsiya;

3) R+ing = R+ -ish/-ash: stretching – cho'zilish; muhrash – sealing;

4) R+out= R+ -lashish: blackout – xiralashish.

Bu model asosida yasalgan ot so'z turkumiga xos so'zlar quyidagi ma'nolarni anglatadi: a) harakat va uning natijalari: development - rivojlanish, blackout - xiralashish, equipment - asbob-uskunalar, invention - ixtiro, playback - ijro etish, representation - vakil bo'lish, glaciation - muzga aylanish, alignment - kelishuv va hokazo; b) ish-harakat quroli: construction - qurilish, structure - tuzilish va boshqalar; v) yasama so'zlar (ko'pincha old qo'shimchali fe'l o'zaklaridan hamda ot o'zaklaridan) harakat, mahsulot holati ma'nosini anglatuvchi mavhum otlar: autopsy - yorish, opening - ochilish va hokazo.

Hozirgi vaqtda ingliz tili, shuningdek, geologiyaga oid termin tizimi shakllanishining butun davri mobaynida o'rganilgan rus tilidagi terminlar faol donor tillaridan biri hisoblanadi : packer (ingliz packer – sealer dan, pack – muhr uchun), cliff (inglizcha cliff dan – bir bemaqsad to'lqin tomonidan tashkil etilgan tanaffus), creep (inglizcha titrash dan – titrash), lizoklin (inglizcha lysoclinedan – kalsit tez eriydi quyida chuqurligi), plunjer (ingliz plungedan – sho'ng'ish), erlift (ingliz airlift dan, havo+ lift), baypas (inglizcha bypass – bypass), bullit (inglizcha bullet – o'q), fluding (inglizchadan flood – sel), spayder (inglizchadan spider – o'rgimchak), shelf (inglizchadan shelf – tokcha), streyner (inglizchadan strainer – filtr, elak), bufer (inglizchadan buffer, buff – silkinishlarni yumshatish uchun), layner (inglizcha liner

dan, line-chiziqdan), overshoot (inglizcha overshootdan, overshoot – o'tkazib yuborish uchun), fitting (inglizcha fittingdan, fit - o'rnatmoq, yig'moq) [13,79].

Ko'pgina bilim sohaslarining terminologik tizimlarida bo'lgani kabi, geologiyaning ingliz va o'zbek tilidagi terminologik tizimida ham yunon-lotin asoslaridan hosil bo'lgan juda ko'p atamalar keltirilgan: collector - kollektor (lotincha collector - yig'uvchi), argillite - argillit (yunoncha argillos – gil + lithos – tosh), barrel – barrel (lotincha barrel – bochka), aulagen – aulagenen (lot.dan. aulāx – egat), abrasive – abraziv (lot. dan abrasio – sochish), horizon – gorizont (lot. dan. horizontis – chegara), coagulation – koagulyatsiya (lot. dan. coagulatio – koagulyatsiya, kattalashish), laccolith – lakkolit (boshqa – yunon. lakkos – shakllanmagan vulqon, ichida magma o'zakli tepalik), liquidus – liquidus (lot.dan liquidus – suyuq), sement – sement (lot.dan saementum – maydalangan tosh, singan tosh), suture – cho'kma (Lot.dan. sutura – cho'kma), limb – limb (lot.dan limbus -chegara, chekka), rotor – rotor (lot. dan roto – aylantirmoq), stator – stator (lot.dan stator – harakatsiz turgan), preventer – preventor-oldini oluvchi (lot. dan. praevenio – ogohlantiraman), debit – debit (lot. dan. debet – (u) qarzdor), cable – kabel (lot. dan. sarulum – arcane, lotin sapere – olish).

Ingliz tili, ko'pgina Yevropa tillari singari, nafaqat o'rganilayotgan atama tizimining o'zbek tilidagi atamalarining faol manba tili, balki lotin, yunon va boshqa tillardan olingan atamalar uchun vositachidir. Ko'pgina Yevropa tillari, o'z navbatida, ingliz va o'zbek tillari uchun lotin va yunon tillaridan vositachi sifatida ishlaydi. Antroponimik asosga ega bo'lgan terminlarning ustunligi – ularning metaforalar, metaforik ko'chimning asosi biologik va ijtimoiy mavjudot sifatida insonga xos bo'lgan sifat va jarayonlarni ifodalash uchun ulardan turli shakl va ko'chim asoslari – metaforalar nuqtai nazaridan foydalanishi mumkinligida ayon bo'ladi. Shu bilan birga, biror-bir mutaxassisning dunyosi haqida ajratilgan terminologik manzara mavjud emas, u dunyodagi kundalik hayot manzarasi bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillari leksikografiyasida terminlardan ba'zi bir sohalarda qo'llanishini ko'rib chiqdik. Kompyuter sohasidagi o'zbek va ingliz tillaridagi terminlarning ishlatilishi uning qo'llanish jarayonini ko'rib chiqdik. Kompyuter sohasidagi terminlar o'zbek tiliga kirib kelgan yangi so'zlar hisoblanadi. Jamiyatimizda kompyuter texnologiyalarining o'rni shunday ahamiyatliki, ushbu sohada yaratilayotgan kashfiyotlar bevosita terminologiyaning rivojiga ham ulkan ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Kundan-kunga yangi atama va terminlar qo'shilishi tabiiy.

Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi g'aznachilik sohasidagi terminlarni o'rganish undagi ma'nolarni bilish jarayonida shular ma'lum bo'ldiki, o'zbek terminologiyasi nisbatan ko'p komponentlilik bilan xarakterlanar ekan. Aslini olganda terminologlar terminlarni iloji boricha kam, komponentli bo'lishini tavsiya etadilar.

Ingliz va o'zbek tilidagi sport sohasidagi terminlarning amaliy samaradorligini ko'rib chiqildi. O'zbek sport terminologiyasida ingliz tilidan kelib chiqqan so'zlar juda ko'p, chunki aksariyat inglizcha terminlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va uning muqobil variantini topish xuddi, o'zbek kurashi sport turi singari ilojsizdir.

Geologiya sohasiga oid terminlarni o'rganish va tadqiq qilish tilshunoslikning turli jihatlari uchun muhim bo'lib, ular tilshunoslikning leksikologiya, leksikografiya, stilistika kabi bo'limlari uchun geologik voqelikning strukturaviy, semantik va grammatik xususiyatlarini aks ettiradi, shuningdek, geologik va geotexnik tarjima usullarini o'rgatish, axborot va matnlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlash kabi fan sohalari uchun ham ahamiyatli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolmirzayeva S. Terminlarning yasash usul va yo'llari. // Academic research in educational sciences. №5 – 94 b.
2. Yo'ldoshev A. O'zbek va ingliz tillarida leksikografiyaning leksik-semantik xususiyatlari. // Academic research in educational sciences. №4 – 39 b.
3. G'afforov N.N. Terminlarning o'ziga xos xususiyatlari. // Oriental art and culture. №2 – 76 b.
4. Галиакберова А. Р. Error correction in foreign languages teaching process. // Вопросы науки и образования, 2016. №4. – 81 с.
5. Лейчик В.М. Оптимальная длина и оптимальная структура термина // Вопросы языкознания. №2 – 258 с.

FOYDALANILGAN LUG'ATLAR RO'YXATI:

6. Butayev Sh. English – Uzbek Dictionary. – T.: O'qituvchi, 2003. – 174 b.
7. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. T.: O'qituvchi, 1985. – 15 b.
8. Hojiyev A., Reshetova L. O'zbek tili grammatik terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent: Akademyashr, 1975. – 190 b.
9. Jumayeva S., Xolliyev I., Raxmatova O. English-Uzbek dictionary. Toshkent: 2019. – 74 b.
10. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: Fan, 2013. – 41 b.
11. Merriam-Webster. Webster's Sports Dictionary. Merriam-Webster, Inc.2000. – 58 p.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 33 b.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. –Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 79 b.

FOYDALANILGAN INTERNET-SAYTLAR RO'YXATI:

14. <http://www.uzbekistan.org/news/archive/302>
15. <http://www.encarta.com>
16. <http://www.english-zone.com>
17. <http://www.longman.com>